

LEKSIKOGRAFIYA VA UNING TILSHUNOSLIKDAGI O'RNI

Samatova Shohida Jamolovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22159344>

Annotatsiya

Ma'lumki, leksikografiya til tarkibida so'zlarni ma'lum tartib va maqsad asosida yozma ravishda to'plab, lug'at tuzish masalalarini o'rganadi. Demak, leksikografiya bu so'zlarni aniq va batafsil tushunishimizga yordam beruvchi manbaadir. So'z tilning asosiy birligi bo'lganligi tufayli uni qay holatda, qay vaziyatda qo'llashimiz juda muhim hisoblanadi. Leksikografiya leksikologiyaning lug'at tuzish bilan shug'ullanadigan bo'limi sifatida mana shunday vaqtda yordamchi bo'ladi.

Kalit so'zlar: leksikografiya, lug'at, termin, ensiklopedik va lingvistik lug'at, imlo lug'ati.

Leksikografiya lug'at tuzish masalalarini o'rganadigan fan sifatida tilshunoslikda muhim rol o'ynaydi. Nafaqat tilshunoslikda, balki boshqa sohalarida ham lug'at va terminlar ma'nosini tushunish soha rivojiga katta hissa qo'shadi. Shuningdek, V.V. Vinogradov lug'at tuzishda so'zlarning ma'nosi, qo'llanishi va tarixiy taraqqiyotini hisobga olish zarurligini ta'kidlagan. Bundan tashqari, Anatol Fransning yozishicha, "lug'at- alfavit tartibida joylashtirilgan voqelikdir". XX asrning 40-yillaridan boshlab leksikografiya yo'nalishlari kengaya boshladi va lug'atning izohli tarjima, imlo, maxsus etimologik va boshqa turlari yaaratila boshladi. Lekin o'rta asrlar leksikografiyasida ko'proq e'tibor izohli va tarjima lug'atlarga qaratilgan. Lug'at turlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, avvalo izohli lug'atga e'tibor berishimiz kerak. Negaki bu lug'at turi bir tilli bo'lib, lug'at ichiga kiritilgan so'z va iboralarga bir tilda izoh beriladi. Masalan, dabdaba so'zi

1. Haddan tashqari tantana, larzga keltiruvchi, vahimaga soladigan xatti-harakat
2. Manmanlik, g'urur bilan to'lib toshgan harakat

Keyingi lug'at turi tarjima lug'atlar bo'lib, bu turdagi lug'atlar ikki yoki undan ortiq tilli bo'lishi mumkin. Bunday lug'atlarda biror tilga oid so'z va iboralar ikkinchi tilga tarjima qilinadi. Biroq imlo lug'atlarda so'z va iboralarning izohi ham, tarjimasi ham bo'lmaydi. Bunday lug'at so'zlarning yozilishini, imlo qoidalarini o'z ichiga oladi. Tillardagi hamma so'zlarning yozilishi umumiy imlo qoidalariga mos kelmaydi. Demak, bu turdagi lug'atlar istisno so'zlarning orfografiyasini aniqlasha ayniqsa qo'l keladi. Masalan mas'ul, ta'lim, e'tibor, ma'naviyat singari so'zlarning yozilishida ko'pchilik xato qiladi ammo imlo lug'ati imlo qoidalariga tog'ri keladigan shaklda ko'rsatib beradi.

1. Ensiklopedik lug'atlar

Ensiklopedik lug'atda narsa, hodisa, shaxs, geografik obyekt, ilmiy tushuncha va boshqa voqeliklar haqida ma'lumot beriladi. Bunday lug'atlarning asosiy vazifasi so'zning til birlik sifatidagi ma'nosini izohlashdan ko'ra, shu so'z orqali ifodalangan predmet yoki tushuncha haqida bilim berishdir.

Masalan, ensiklopedik lug'atda "Amir Temur" maqolasi berilganda uning hayoti, faoliyati, tarixdagi o'rni va boshqa muhim ma'lumotlar keltiriladi. "Samarqand" maqolasida esa shaharning geografik joylashuvi, tarixi, aholisi va madaniy ahamiyati haqida malumot berilishi mumkin.

Ensiklopedik lug'atlar quyidagi turlarga bo'linadi:

Umumiy ensiklopedik lug'atlar — fan, tarix, madaniyat, geografiya, sa'nat kabi ko'plab sohalarni qamrab oladi.

Soha ensiklopedik lug'atlari — muayyan fan yoki kasbga oid tushunchalarni izohlaydi. Masalan, tibbiyot, huquq, biologiya yoki adabiyotga oid ensiklopedik lug'atlar.

Shaxslar ensiklopediyasi — mashhur tarixiy shaxslar, olimlar, yozuvchilar, sa'natkorlar va boshqa taniqli kishilar haqida ma'lumot beradi.

Geografik ensiklopedik lug'atlar — davlatlar, shaharlar, daryolar, tog'lar va boshqa geografik obyektlar haqida malumot beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, leksikografiya tilning lug'aviy boyligini toplash, tizimlashtirish, izohlash va avlodlarga yetkazishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan sohadir. Turli lug'atlarning yaratilishi til birliklarini chuqur o'rganish bilan bir qatorda, jamiyatning ilmiy, madaniy va manaviy tajribasini aks ettirishga xizmat qiladi. Shu bois leksikografiya til taraqqiyoti, nutq madaniyati va ilmiy bilimlarni rivojlantirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. <https://izoh.uz/>
2. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. — Тошкент: «Ўзбекистон», 2002.